

EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ORQALI MAMLAKAT MINTAQALARINING IQTISODIY O'SISHIGA ERISHISH

PhD, dots. **Ibadullayev Ergash**

Ma'mun universiteti

ORCID: 0000-0002-7059-2510

ergashibadullaev90@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada respublika eksport takibi tahlil qilingan, mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishi eksportning ahamiyati o'rganilgan va respublika hududlarining imkoniyatlaridan kelib chiqib eksport istiqbollari asosida takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: mintaq, tashqi savdo, eksport, import, diversifikatsiya.

ДОСТИЖЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА РЕГИОНОВ СТРАНЫ ЗА СЧЁТ УВЕЛИЧЕНИЯ ЭКСПОРТНОГО ПОТЕНЦИАЛА

PhD, доц. **Ибадуллаев Эргаш**

Университет Маъмуна

Аннотация. В данной статье проведён анализ экспортной динамики Республики, изучено значение экспорта для экономического развития регионов, а также на основе экспортного потенциала территорий представлены предложения и рекомендации.

Ключевые слова: регион, внешняя торговля, экспорт, импорт, диверсификация.

ACHIEVING ECONOMIC GROWTH OF THE COUNTRY'S REGIONS BY INCREASING EXPORT POTENTIAL

PhD, assoc. prof. **Ibadullayev Ergash**

Mamun University

Abstract. This article analyzes the dynamics of the republic's exports, explores the importance of exports in the economic development of the regions, and provides recommendations based on the export potential of different areas of the country.

Keywords: region, foreign trade, export, import, diversification.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy taraqqiyoti va global miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirishda eksport salohiyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Eksport imkoniyatlarini kengaytirish nafaqat iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri, balki xalqaro bozorlar bilan barqaror va mustahkam aloqalarni yo'lga qo'yishda ham asosiy omildir.

Hozirgi kunda mamlakat eksportining asosiy qismini tabiiy boyliklar tashkil qilayotgan bo'lsa-da, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun mahsulot turlarini ko'paytirish, ularning sifatini oshirish hamda yangi bozorlar ehtiyojiga mos mahsulotlar ishlab chiqarishga ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi amalga oshirayotgan iqtisodiy islohotlarda eksport salohiyatini mustahkamlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda olib borilgan liberallashtirish siyosati, bojxona va soliq tizimlarini soddalashtirish hamda eksportni rag'batlantiruvchi mexanizmlarning joriy etilishi mintaqalarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarining vujudga kelishiga va eksport yo'nalishlarining kengayishiga zamin yaratmoqda. Ayniqsa, viloyatlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning xorijiy bozorga olib chiqilishi orqali nafaqat respublika markazida, balki chekka hududlarda ham iqtisodiy faollik sezilarli darajada ortmoqda.

O'zbekistonda tashqi savdo siyosatini takomillashtirish yo'nalishida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. 2017-yil 13-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan imzolangan PF-5012-sonli farmon (2017) mamlakatning xalqaro savdo aloqalarini kengaytirish, tashqi savdo jarayonlarini liberallashtirish, eksport salohiyatini oshirish va raqobatbardosh mahalliy mahsulotlarni xorijiy bozorlarga olib chiqish tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Ushbu farmon asosida savdo sohasida uzoq muddatli va barqaror hamkorlik aloqalarini shakllantirish ham ko'zda tutilgan.

Shuningdek, 2018-yil 20-dekabrda qabul qilingan PQ-4069-sonli Prezident qaroriga (2018) asosan eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash milliy tizimi barpo etildi. Shu doirada Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzurida Eksportni rag'batlantirish agentligi tashkil etildi. Qarorga muvofiq, 205 turdagi tovarlarni eksport qilishda transport xarajatlarining yarmi davlat tomonidan qoplab berilishi belgilandi.

Bundan tashqari, mamlakat elektrotexnika sanoati sohasida ham eksport hajmini oshirish bo'yicha aniq rejalarni ishlab chiqqan. Xususan, kelgusida 1,3 milliard dollarlik elektrotexnika mahsulotlarini xorijga yetkazib berish rejalashtirilmoqda. Mintaqaviy va xalqaro bozorlar, ayniqsa, yarimo'tkazgichlar va elektron platalarga bo'lgan talab 6 milliard dollarga baholanmoqda. Shu bilan birga, yaqin besh yil ichida mis ishlab chiqarish hajmini uch baravarga oshirish va 2026-yilgacha uni tayyor mahsulotga qayta ishlash darajasini 70 foizga yetkazish ko'zda tutilgan (Qaror, 2018).

Adabiyotlar sharhi.

O'zbekistonning eksport imkoniyatlarini rivojlantirish borasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda nafaqat mahalliy olimlar, balki xorijiy ekspertlarning fikr va tajribalari ham katta o'rin tutadi. Bu boradagi tahliliy yondashuvlar asosan ichki va xalqaro miqyosda ilmiy-texnik salohiyatni yuksaltirishga qaratilgan izlanishlar va innovatsion g'oyalarga tayangan holda shakllanmoqda. Yangi tadqiqotlar mamlakat eksport tizimini takomillashtirishda zamonaviy ilmiy yondashuvlarning qanday rol o'ynashi mumkinligini ochib beradi (Qodirov va boshq., 2024).

Iqtisodiy rivojlanishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda eksportning o'sish jarayonidagi ahamiyati ham alohida o'rganilgan bo'lib, eksport faoliyati iqtisodiy o'sishni jadallashtiruvchi omil sifatida ko'riladi. Bu borada ilgari surilgan gipotezani asoslovchi bir nechta asosli fikrlar mavjud. Jumladan, eksport hajmining ortishi ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga xizmat qilishi mumkin. Sababi, bunda miqyos tejamkorligidan foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi va eksport texnologik yangiliklarni joriy qilishning samarali usullaridan biri hisoblanadi (Rajabov va boshq., 2023). Ushbu fikrni tekshirish uchun bir qator tadqiqotlar eksport ko'rsatkichlarini umumiy ishlab chiqarish funksiyasiga kiritgan. Agar bu gipotezani haqiqat deb qabul qilsak, u holda eksport faoliyati iqtisodiyotga texnologik uzatish orqali bilvosita ta'sir ko'rsatadi, degan xulosa chiqarish mumkin.

Paul Krugmanning (2018) "International Economics: Theory and Policy" kitobida eksportga quyidagicha ta'rif berilgan: Eksport – bu bir mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulot yoki xizmatlarning boshqa mamlakatlarga sotilishi jarayonidir. Shuningdek, izlanishlar natijasida, eksport xalqaro savdo asosidagi asosiy tushunchalardan biri sifatida ko'riladi va uning iqtisodiy o'sish, texnologik almashinuv hamda bozorlar kengayishi uchun muhimligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, eksportga ta'sir qiluvchi omillar, firmalarning eksportga chiqish qarorlari va davlat siyosati orqali eksportni rag'batlantirish mexanizmlari ham batafsil tahlil qilingan.

Yana bir xorijiy adabiyotlarda, eksport mamlakat iqtisodiyotining turli sohalarga kengayishiga yordam beradi va mahalliy bozor cheklovlaridan tashqarida yangi savdo imkoniyatlarini yaratadi. Eksport qiluvchi kompaniyalar esa, odatda, xalqaro raqobatda muvaffaqiyat qozonish uchun mahsulot sifatini yaxshilash, yangi texnologiyalarni joriy etish va samaradorlikni oshirishga intiladi (Nurjanov va boshq., 2025).

Bundan tashqari mahalliy olimlar ham bu borada ko'plab izlanishlar amalga oshirishgan, jumladan: Islomovning (2015) fikricha eksport – bu milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning boshqa davlatlarga sotilishi orqali mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirish jarayonidir. Eksport xorijiy valyuta tushumlarini ta'minlash va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarning xorijiy bozorga chiqarilishi, ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi, deya ta'kidlab o'tgan o'z ilmiy ishlarida Axmedova (2018).

Xorazm viloyatida eksport salohiyatini oshirish orqali nafaqat mintaqa iqtisodiy o'sishiga erishish, balki ijtimoiy rivojlanish, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarilishi darajasini oshirishga ham xizmat qilishi aniqlandi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda eksport salohiyatini iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash maqsadida Davlat statistika qo'mitasi, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi hamda Jahon banki ma'lumotlaridan foydalanildi. Ma'lumotlar dinamik qiyosiy tahlil, indikatorlar asosidagi baholash va hududiy ixtisoslashuv darajasini solishtirish usullari orqali tahlil qilinadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining tez sur'atda rivojlanishiga yordam bermoqda. Ayniqsa, eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan qarorlar mahalliy korxonalarga xalqaro bozorlar tajribasini kengaytirish imkoniyatini yaratadi. Natijada, ular jahon bozorida raqobatbardosh ustunlikka erishadilar. 2024-yilda O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 65,9 milliard AQSh dollariga yetdi, bu 2023-yilga nisbatan 3,8% yoki 2,4 milliard AQSh dollari miqdorida o'sishni ko'rsatadi. Ushbu o'sish eksportni kengaytirish, importni samarali boshqarish hamda tashqi savdo balansini yaxshilashga qaratilgan iqtisodiy islohotlar samarasidir. 2024-yilda eksport hajmi 26,9 milliard AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 8,4% ga oshdi¹.

2024-yilda Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi 4 foizga o'sib 25,3 mlrd dollarni tashkil qilgan. Bu hududlar kesimidagi eng yuqori ko'rsatkichdir. Qashqadaryo viloyati 2023-yilga nisbatan 50 foizga o'sib, 12-o'rindan 10-o'ringa ko'tarildi. 2024 yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi ishtirokchilari soni qariyb 18,2 mingtaga yetdi (2023 yil yanvar-mart oylariga nisbatan 2,6 mingtaga ko'paydi). Shundan eksportyorlar soni 4,1 mingta (2023 yil yanvar-mart oylariga nisbatan 1,1 ming taga ko'paydi)ni tashkil etgan bo'lsa, 14,1 ming (2023 yilga nisbatan 1,5 ming taga ko'paydi) importyorlar tomonidan tovar va xizmatlar import qilindi. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib

¹ O'zbekiston Respublikasi davlat statistika agentligi ma'lumotlari www.stat.uz

turganidek tashqi savdo ishtirokchilarining eng katta qismi Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Farg'ona viloyatlariga to'g'ri kelmoqda (Xolmurotov va boshq., 2025).


1-jadval

**O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi ishtirokchilari
(2024 yil yanvar-mart, birlikda)**

Hudud	Eksportyorlar	Importyorlar
Qoraqalpog'iston Respublikasi	108	153
Andijon	273	603
Buxoro	171	544
Jizzax	80	148
Qashqadaryo	112	214
Navoiy	100	270
Namangan	206	327
Samarqand	276	933
Surxondaryo	135	129
Sirdaryo	106	167
Toshkent viloyati	598	1 457
Farg'ona	403	996
Xorazm	113	317
Toshkent shahri	1 218	7 095


Manba: muallif ishlanmasi.

Tadqiqot ishimizda mamlakatimiz hududlarining eksport va import tarkiblarini o'rganib chiqdik va respublika miqiyosida 2007 va 2024 yillarni qiyoslab ko'rdik ushbu davr tanlab olinishiga asosiy sabab bu albatta O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasida bazasida mavjud ma'lumotlarda hisoblanadi.



**1-diagramma. O'zbekiston Respublikasi eksport tarkibi solishtirmasi
(2007 va 2024 yillar)**

Manba: muallif ishlanmasi.



Yuqorida keltirilgan diagrammalardan ko'rinib turganidek tanlab olingan davrlar oralig'ida eksport tarkibida bir qancha o'zgarishlar amalga oshirilgan, jumladan 2007 yilda paxta tolasi 12.5% ko'rsatkichga ega bo'lgan bo'lsa 2024 yilga kelib ushbu mahsulot eksporti keskin to'xtatilgan, xizmatlar eksportida ham sezilari darajada 8 foiz atrofida o'sish kuzatilgan, 2024 yilni ko'radigan bo'lsak 41.7% bilan oltin eksporti mutloq ustunlik qilgan.

Tadqiqot ishimizda hududning eksport imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishda uning tarkibini hisobga olish muhimligini ko'rib chiqdik. Hududning eksport salohiyati – bu uning mavjud potentsiallarining umumiy va muhim yig'indisi sifatida tushunilishi mumkin (1-rasm). Mintaqaning eksport salohiyati quyidagi o'ziga xos imkoniyatlarni o'z ichiga oladi:

- asosiy resurs salohiyati – hududning tabiiy resurslarga o'rtacha vaznli ta'minlanish darajasi asosida hisoblanadi;

- ishlab chiqarish salohiyati – hududdagi korxonalar iqtisodiy faoliyatining umumiy natijasi;

- mehnat salohiyati – hudud korxonalaridagi xodimlarning malakasi va ta'lim darajasini ifodalaydi;

- iste'mol salohiyati – ichki va tashqi bozorlarning hajmi hamda ularning xususiyatlari;

- infratuzilma salohiyati – iqtisodiy-geografik joylashuvi va sanoat infratuzilmasining sifati;

- innovatsion salohiyat – ilmiy-tadqiqot faoliyatining rivojlanish darajasi va ilmiy-texnik taraqqiyot natijalarini amalga oshirish imkoniyatlari;

- institutsional salohiyat – asosiy bozor iqtisodiyoti institutlari, mulk shakllari va kichik biznesning rivojlanish darajasi.

Hududning eksport salohiyatining yuqoridagi tuzilmasi tashqi bozorlarga raqobatbardosh mahsulotlarni chiqarish imkoniyatlari va ularni amalga oshirish darajasini ifodalaydi. Eksport faoliyatining salohiyati – bu hududning chet el bozorlarida mahsulotlarni sotish uchun mavjud bo'lgan eng katta imkoniyatlari hisoblanadi (Shestakova, 2019). Bu eksport salohiyatining asosiy qismi bo'lib, zamonaviy global bozorda xaridorning roli ustun ekanligi sababli, milliy va xalqaro darajada mahsulot ishlab chiqarishdan ko'ra, marketing masalalari muhimroq ahamiyatga ega bo'ladi.



1-rasm. Hudud eksport salohiyatining tarkibiy elementlari

Manba: muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyida O'zbekiston Respublikasi hududlarining eksport imkoniyatlari va istiqbollarini o'zida jamlagan jadval ishlab chiqdik (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha eksport salohiyati va istiqbollar

Hudud	Asosiy eksport yo'nalishlari	Yangi istiqbollar	Sabablar
Andijon	To'qimachilik, avtomobil ehtiyot qismlari	Elektronika, farmatsevtika	Rivojlangan sanoat zonalari, Chegara orqali transport qulayligi (Qirg'iziston bilan)
Buxoro	Paxta tolasi, zargarlik buyumlari	Turizm, ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari	Tarixiy merosga boy hudud, ekologik mahsulotlar yetishtirishga yaroqli iqlim
Farg'ona	Yog'-moy mahsulotlari, neft-kimyo	Kichik mexanika, meva-sabzavot konservasi	Sanoatlashgan, meva-sabzavot yetishtirish kuchli, yuqori ishchi kuchi zaxirasi
Jizzax	G'alla, paxta	Quyosh energiyasi, qurilish materiallari	Keng yer maydoni, quyoshli kunlar ko'p, sement va gips zaxiralari mavjud
Xorazm	Sabzavotlar, tikuv-trikotaj	Muzlatilgan mahsulotlar, IT xizmatlari	Dehqonchilik rivojlangan, yoshlar o'rtasida IT bilimlarga talab yuqori
Namangan	To'qimachilik, charm mahsulotlari	Kosmetika, ekoturizm	Tabiiy o'simliklar ko'pligi (yog'lar uchun), tog'li hududlar – turizm uchun jozibador
Navoiy	Tog'-kon mahsulotlari, oltin	Kimyo mahsulotlari, qayta ishlangan minerallar	Kon resurslari boy, kimyo sanoati mavjud
Qashqadaryo	Gaz, paxta	Qurilish materiallari, bioyoqilg'i	Uglevodorod zaxiralari, chiqindilardan yoqilg'i olish imkoniyati
Qoraqalpog'iston	Baliq, qishloq xo'jaligi mahsulotlari	Ipakchilik, tuz mahsulotlari	Amudaryo deltasidagi tabiiy boyliklar, tuz konlari

Hudud	Asosiy eksport yo'nalishlari	Yangi istiqbollar	Sabablar
Samarqand	Sharbat, to'qimachilik, quritilgan mevalar	Qadoqlangan oziq-ovqat, gastronomik turizm	Qishloq xo'jaligi kuchli, tarixiy va oshpazlik brendi bor
Sirdaryo	G'alla, paxta	Logistika, agroxizmatlar eksporti	Geografik markaziy joylashuv, logistika markazlariga yaqinlik
Surxondaryo	Meva-sabzavot, g'oya	Issiqxona mahsulotlari, dorivor o'simliklar	Iqlim iliq, Afg'oniston bilan yaqinlik eksportni qulaylashtiradi
Toshkent viloyati	Sanoat mahsulotlari, elektrotexnika	Farmatsevtika, IT xizmatlari	Rivojlangan infratuzilma, Toshkent shahri bilan integratsiya
Toshkent shahri	IT, xizmatlar sohasi, mashinasozlik	Fintex, dizayn xizmatlari	Yuqori texnologik salohiyat, kuchli inson kapitali

Manba: muallif ishlanmasi.

Ushbu jadvalda O'zbekistonning har bir hududi uchun mavjud resurslar va iqtisodiy salohiyatga asoslangan **mavjud eksport yo'nalishlari** bilan bir qatorda **yangi istiqbolli yo'nalishlar** ko'rsatilgan. Har bir istiqbol uchun ularni asoslovchi **iqtisodiy, geografik yoki ijtimoiy sabablar** keltirilgan.

- **Markaziy hududlar** (Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Sirdaryo) – yuqori texnologiyalar, xizmatlar va logistika sohalarida yetakchilik qiladi. Bu hududlar ilg'or infratuzilma va inson kapitali bilan ajralib turadi.

- **Qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan viloyatlar** (Surxondaryo, Xorazm, Andijon, Farg'ona) – issiqxona, sabzavot, meva eksportida faol, va yangi istiqbol sifatida oziq-ovqatni chuqur qayta ishlashga ega.

- **Kon resurslariga boy hududlar** (Navoiy, Qashqadaryo, Buxoro) – an'anaviy eksporti tog'-kon sanoati, gaz va neft bo'sa-da, kimyo sanoati, bioyoqilg'i va qayta ishlovchi tarmoqlar istiqbolli yo'nalishlar sifatida ajratilgan.

- **Turizm salohiyatiga ega hududlar** (Samarqand, Buxoro, Namangan) – eksportga qaratilgan xizmatlar (ekoturizm, gastronomik turizm) va milliy brendlar asosida rivojlanish imkoniyatiga ega.

- **Qoraqalpog'iston Respublikasi** – tabiiy resurslarga boy, ipakchilik va tuz sanoati eksporti orqali yangi tarmoqlarga chiqish salohiyatiga ega.

Xulosa va takliflar.

Eksport salohiyatining oshirilishi mintaqaning barqaror iqtisodiy o'sishiga olib keluvchi muhim omillardan biridir. Tashqi bozorlarga yo'naltirilgan mahsulotlar hajmining ortishi sanoat ishlab chiqarishini kengaytiradi, yangi ish o'rinlarini yaratadi va hududiy daromadlar bazasini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, eksport salohiyati mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirishga, xalqaro tajriba almashinuvi va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga xizmat qiladi. Eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy model ichki bozor muammolarini yengillashtiradi hamda barqaror valyuta tushumlarini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasining har bir hududi o'ziga xos tabiiy resurslar, iqtisodiy salohiyat va geografik joylashuvga ega bo'lib, bu omillar hududiy eksport faoliyatini strategik rivojlantirish imkonini beradi. Hozirda eksport tarkibida paxta, meva-sabzavot, gaz va kon mahsulotlari ustunlik qiladi, biroq bu salohiyatni chuqur qayta ishlangan mahsulotlar, yuqori texnologiyali xizmatlar va innovatsion tarmoqlar bilan boyitish lozim.

Jadvallar tahlilidan ko'rinib turibdiki, har bir viloyat o'z resurslari asosida yangi eksport yo'nalishlarini shakllantirish imkoniyatiga ega: bu yo'nalishlar jumlasiga IT xizmatlari, farmatsevtika, muqobil energiya, logistika, turizm va ekologik toza mahsulotlar kiradi. Eksport geografiyasini kengaytirish, mahsulotni brendlash va xalqaro standartlarga moslashtirish esa ushbu imkoniyatlarni real natijaga aylantirishga xizmat qiladi.

- **hududiy eksport strategiyalarini ishlab chiqish ya'ni** har bir viloyat uchun alohida eksport strategiyasi ishlab chiqilib, mavjud resurslar va demografik salohiyatga asoslangan ustuvor yo'nalishlar aniqlansin;

- **qayta ishlash sanoatini rivojlantirish orqali** xomashyo eksportidan voz kechib, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar oziq-ovqat, farmatsevtika, elektronika va charm mahsulotlarini ishlab chiqarishga e'tibor qaratish zarur;

- **logistika infratuzilmasini mustahkamlash**, mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarini tashqi bozorga tez va arzon yetkazish imkoniga ega bo'lishi uchun logistika markazlari, yo'l va bojxona infratuzilmasi yaxshilanishi kerak;

- **kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash orqali** eksportga chiqmoqchi bo'lgan tadbirkorlar uchun moliyaviy imtiyozlar, eksportni sug'urtalash va konsultatsion xizmatlar tizimi kengaytirish;

- **mahsulot sertifikatlashi va brendlash**, hududiy mahsulotlar xalqaro sifat va ekologik sertifikatlariga ega bo'lishi, shuningdek milliy brendlar orqali xorijiy bozorlarda raqobatbardosh bo'lishi lozim;

- **yoshlar va kadrlar salohiyatini rivojlantirish va** IT, muhandislik, dizayn va boshqa eksportbop sohalarda kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish eksport xizmatlarini kengaytirishga xizmat qiladi;

- **ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash**, eksport faoliyati atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, aholi bandligini oshirishi va mahalliy ehtiyojlarni inobatga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

Alibek Rajabov, Ergash Ibadullaev, Bahtiyor Egamov, Xurshid Zaripov and Jaxongir Qosimov. (2023) Empirical analysis of determining the influence of the level of innovative development on the economy of world countries. E3S Web of Conferences 449, 02001 (2023) PDSSED. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202344902001>.

Arslonbek Nurjanov, Fozil Xolmurotov, Ergash Ibadullaev, Jasurbek Ataniyazov, Manzura Masharipova, Feruza Yusupova and Xolilla Xolmurotov (2025). The impact of renewable energy consumption on export performance in Uzbekistan: A vector autoregression approach. Environmental Economics, 16(2), 186-198. doi:[10.21511/ee.16\(2\).2025.14](https://doi.org/10.21511/ee.16(2).2025.14)

Axmedova, N. (2018). Tashqi savdo va eksport strategiyalari. Toshkent: Iqtisodiyot universiteti nashriyoti.

Elena V. Shestakova (2019) Developing the export potential of a region and their practical approbation. Orenburg State University, Orenburg, Russian Federation <https://produccioncientificaluz.org/index.php/opcion/issue/view/2720>

Farmon (2017) "Tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 13.04.2017. PF-5012-son.

Fozil Xolmurotov, Obidjon Khamidov, Sukhrob Davlatov, Ergash Ibadullaev, Xolilla Xolmurotov, Alisher Sherov and Gulsanam Arabova (2025). The impact of renewable energy consumption on unemployment rates in Uzbekistan: An ARDL approach. Environmental Economics, 16(1), 78-88. doi:[10.21511/ee.16\(1\).2025.06](https://doi.org/10.21511/ee.16(1).2025.06)

Islomov, Sh. (2015). Milliy iqtisodiyot va tashqi savdo. –Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

Krugman, P. (2018). *International Economics: Theory and Policy*. 11th ed. Boston: Pearson.

Qaror (2018) "Eksportga ko'maklashish va uni rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 20.12.2018 yildagi PQ-4069-son.

Qodirov, A., Urakova, D., Amonov, M., Masharipova, M., Ibadullaev, E., Xolmurotov, F., & Matkarimov, F. (2024). The Dynamics of Tourism, Economic Growth, and CO2 Emissions in Uzbekistan: An ARDL Approach. *International Journal of Energy Economics and Policy*, 14(6), 365–370. <https://doi.org/10.32479/ijeep.16591>.